

NEMIS TILIDA PERFEKT SHAKLINI *HABEN* VA *SEIN* YORDAMCHI FE'LLARI BILAN HOSIL QILUVCHI FE'LLAR

Xasananov Ramish Samatovich

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

Annotatsiya: Hozirgi nemis tilida perfekt zamon shakli "haben" yoki "sein" yordamchi fe'llari yordamida hosil qilinadi. Biroq, ayrim fe'llar ikkala yordamchi fe'l bilan ham ishlatilishi mumkin, bu esa harakatning semantik va aksional xususiyatlariga bog'liq. Yurish-harakat fe'llari (*laufen, reisen, schwimmen*), holat o'zgarishini bildiruvchi fe'llar (*altern, gären*) va valentlik hamda o'timsizlikka bog'liq fe'llar turli kontekstlarda "haben" yoki "sein" bilan kombinatsiyada turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Bundan tashqari, ba'zi fe'llarning yordamchi fe'l tanlovi hududiy dialektal farqlarga bog'liq bo'lib, Shimoliy va Janubiy Germaniyada turlicha qo'llaniladi. Maqolada ushbu holatlar misollar orqali batafsil tahlil qilinadi va nemis tilining perfekt shaklini to'g'ri ishlatishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan grammatik omillar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Perfekt, yordamchi fe'llar, *haben, sein*, aspekt, aksionallik, o'timsizlik, valentlik, yurish-harakat fe'llari, holat o'zgarishi, grammatikalizatsiya, dialektal farqlar, nemis tili.

Аннотация: В современном немецком языке форма прошедшего времени Perfekt образуется с помощью вспомогательных глаголов *haben* или *sein*. Однако некоторые глаголы могут использовать оба вспомогательных глагола в зависимости от их семантических и акциональных характеристик. Глаголы движения (*laufen, reisen, schwimmen*), глаголы, обозначающие изменение состояния (*altern, gären*), а также глаголы, различающиеся по валентности и переходности, могут приобретать разные значения в сочетании с *haben* или *sein*. Кроме того, выбор вспомогательного глагола зависит от региональных диалектных различий: в северной и южной Германии наблюдаются различные предпочтения. В статье подробно анализируются эти явления на примере множества конструкций, а также рассматриваются грамматические факторы, которые необходимо учитывать для правильного употребления формы Perfekt в немецком языке.

Ключевые слова: перфект, вспомогательные глаголы, *haben, sein*, глаголы движения, изменения состояния движение, аспект, акциональность, переходность, валентность, изменение состояния, грамматикализация, диалектные различия, немецкий язык.

Maskur maqola nemis tilida ayrim fe'llarning perfekt shakli qanday hollarda "haben" va "sein" yordamchi fe'llari bilan hosil bo'lishi mumkinligini tahlil qiladi. Ushbu yordamchi fe'llarning tanlanishi fe'lning semantikasi, aksional xususiyatlari, o'timsizligi va valentligi hamda regional farqlarga bog'liq ekanligi yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi perfekt zamonda "haben" va "sein" yordamchi fe'llari bilan hosil bo'luvchi fe'llarning o'ziga xos grammatik va semantik xususiyatlarini tushuntirishdan iborat.

Hozirgi nemis tilida perfekt zamon shaklini yasashda *haben* yoki *sein* ko'makchi fe'llar qo'llaniladi, ya'ni *haben* orqali yasalgan fe'llar odatda *sein* bilan ishlatilmaydi va aksincha. Biroq, ham *haben* va ham *sein* yordamida perfekt zamon shaklini yasay oladigan ko'plab fe'llar mavjud. Bu fe'llar turli semantikasi va aksional xususiyatlar asosida bir-biridan farqlanadi. Ularning bir nechta guruhlarini ajratish mumkin.

1. **Yurish-harakat fe'llari.** Yurish-harakat fe'llari bilan bog'liq perfekt shaklining aspekti (vid) turli xil ma'nolarni anglatishi mumkin. Nemis tildagi yurish-harakat fe'llari, odatda, chegaralangan (telik) yoki chegaralanmagan (atelik) bo'lishi mumkin. Buning asosida ular "haben" bilan ishlatilganda davomiylik yoki prosessuallikni anglatadi, "sein" bilan maqsadga

yetish yoki harakatning tugallanishini ifodalaydi. Bunday hollarda fe'llarning aksional xususiyatlarini tushunish muhimdir. Акционал тасниф - бу феълларни лексик потенциалида чегараланганлик белгисининг мавжудлиги/мавжуд эмаслиги билан боғлиқ бўлган гуруҳланишдир. Чегараланганлик - феълнинг ўз лексик потенциалида ички чегаранинг мавжудлиги, чегараланмаганлик феъл семантикасида худди ўша чегаранинг йўқлигидир (qarang: [Muminova 2021: 12] Taqqoslang:

Ich habe den ganzen Tag gelaufen – Bu yerda *laufen* fe'li chегараланмаган (мўлжалсиз, йўналишсиз кезиб юрмоқ) fe'l sifatida *haben* bilan ishlatilib, harakatning davomiyligiga urg'u berilmoqda, bu jarayon bir kun davomida sodir bo'lgan.

Ich bin in den Park gelaufen – Bu misolda *laufen* fe'li маълум мўлжал томон ҳаракатланмоқ ма'noni bildirib chegaralangan fe'l ifatida *sein* bilan qo'llanilib, maqsadga yetishga urg'u berilgan.

Bu kabi fe'llarning chegaralangan yoki chegaralanmaganligini kontekstga qarab anglab olish mumkin. Masalan, *haben* bilan prosessuallikni, *sein* bilan esa harakatning natijasini ifodalay olish mumkin. Qo'yidagi misollarni taqqoslang:

Sie hat früher sehr viel getanzt – Oldinlar u ko'p raqsga tushardi.

Der Urlauber hat den ganzen Tag gepaddelt – Dam oluvchi butun kun eshkak eshdi.

Sein bilan harakatning maqsadga yo'naltirilganligi yoki tugallanishi ko'rsatiladi. Masalan:

Sie ist durch den Saal getanzt – U zalni o'ynab o'tdi.

Der Urlauber ist an das andere Ufer gepaddelt – Dam oluvchi boshqa qirg'oqqa suzib bordi.

Bu misollardan ma'lum bo'ladiki, yurish-harakat fe'llari *sein* yordamchi fe'li bilan sub'ektning aniq bir joyga yoki maqsadga yo'nalishini, *haben* bilan esa harakatning chegaralanmaganligini bildiradi. Shunday qilib, ularning farqi aspektual-semantik (tur, vid) xususiyatlariga bog'liq. *Haben* bilan ifodalangan hodisa davomiylik (jarayonlilik) ma'nosini anglatadi, *sein* bilan esa harakatning tugallanishi, o'z maqsadiga yetib borishi va joy o'zgarishi nuqtai nazaridan qaraladi. Taqqoslang:

(1) *Sie hat früher sehr viel getanzt.* – Oldinlar u ko'p raqsga tushardi.

(2) *Sie ist durch den Saal getanzt.* – U zalni uynab o'tdi.

(1) *Der Urlauber hat den ganzen Tag gepaddelt.* – Dam oluvchi kun bo'ylab eshkak eshdi.

(2) *Der Urlauber ist an das andere Ufer gepaddelt.* – Dam oluvchi boshqa qirg'oqqa suzib ketdi.

(1) *Er hat drei Stunden gesegelt.* – U uch soat suzib yurdi .

(2) *Er ist nach der Insel gesegelt.* – U orolga suzib ketdi.

Misollar izohiga kelsak, (1) raqamli jumalarda tasvirlangan hodisaning uzoq vaqt davomida sodir bo'lishi aks ettirilgan. Davomiylik ma'nosi harakat oqimini bildiruvchi *sehr viel, den ganzen Tag, drei Stunden* kabi vaqt ko'rsatkichlari orqali tasdiqlangan. Yurish-harakat fe'llari sub'ektning yo'nalishsiz harakatini ifodalaydi va chegaralanmagan fe'llar sifatida qaraladi. (2) raqamli misollarda esa sub'ekt-ning joy almashtirishi, muayyan ob'ekt tomon yo'nalishi, ya'ni ma'lum bir chegara sari intilishi ifodalangan. Bunday yurish-harakat fe'llari chegaralangan fe'llar guruhiga mansub hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, bunday fe'llarni aksional jihatdan ikki xil xususiyatga – chegaralangan va chegaralanmagan tavsiflarga ega yoki limitativ neytral fe'llar sifatida talqin etish mumkin (qarang: [Rizayev 2013:68], [Muminova 2021: 12]).

G. Gelbig, I. Busha larning ta'kidlashicha, *fahren, fliegen, galoppieren, klettern, laufen, reisen, schwimmen, springen* kabi yurish-harakat fe'llari hozirgi nemis tilida o'timsiz foydalanishda faqat *sein* bilan ishlatiladi [G. Gelbig, I. Busha 1987:140 -142].

2. Holat o'zgarishini bildiruvchi fe'llari.

Yurish-harakat fe'llariga o'xshab, holat o'zgarishini bildiruvchi ba'zi fe'llarda *haben* va *sein* o'rtasidagi tebranishlar ham sodir bo'ladi, lekin ularda yoki harakatni oqimi (*haben* bilan) yoki hodisani sodir bo'lishiga (*sein*) urg'o beriladi. Taqqoslang:

Der Lehrer *hat* schnell gealtert. - O'qituvchi tez qaridi.

Der Lehrer *ist* schnell gealtert. - O'qituvchi tez qarib qoldi.

Der Wein *hat* gegoren. - Sharob achidi.

Der Wein *ist* gegoren. - Sharob achib qolgan.

Yana bir guruh fe'llar ham *haben* ham *sein* ko'makchi fe'li bilan perfekt yasashda qo'llanilishi mumkin – bu holatni bildiruvchi *liegen*, *sitzen* va *stehen* f'llaridir. Germaniyaning janubiy hududlarida bu fe'llar *sein* bilan ishlatiladi, ammo shimolda *haben* afzal ko'riladi. Buning zahirida regional til o'zgarishlari va grammatik qoidalarining hududiy farqlari yotadi. Masalan:

Er hat an dem Tisch gesessen – Shimoliy Germaniyada ko'p qo'llaniladigan shakl, yordamchi fe'l *haben* bilan ishlatilgan.

Er ist an dem Tisch gesessen – Janubiy Germaniyadagi variant, *sein* yordamchi fe'li bilan qo'llanilgan.

Bu dialektal farqlar, tilning turli hududlarda qanday rivojlanganini yoritishda katta ahamiyatga ega.

3. Valentlik va o'timlilikka qarab farqlanadigan fe'llar

Yuqorida aytib o'tilgan holatlar turli valentlik, o'timlilik/ o'timsizlik, turli aksional xususiyatlarga ega bo'lgan va shuning uchun perfekt o'tgan zamon boshqacha shakllangan holatlar o'rtasida farq qilish lozimligini ko'rsatdi. Ba'zi bir hil fe'llar bilan ifodalangan voqealar ma'no va valentlik jihatidan farq qiladi va shuning uchun ularning perfekt shakllari turli ko'makchi fe'llar (*haben* yoki *sein*) bilan yasaladi.

Valentlik va o'timlilik nemis tilida perfekt shaklini tanlashga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biridir. Valentlik fe'lning necha to'ldiruvchiga muhtojligini bildiradi va bu perfektda *haben* yoki *sein* bilan ishlatilishiga ta'sir qiladi. O'timlilik fe'lning to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi ob'yektga ega ekanligini ko'rsatadi va o'tgan zamonda bu o'zaro aloqalar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan:

Er hat das Auto gefahren – Bu yerda *haben* yordamchi fe'li bilan ishlatilgan, va fe'l o'tgan zamon shaklida to'g'ridan-to'g'ri ob'ektga ta'sir etmoqda (mashinani boshqarish).

Er ist nach Berlin gefahren – Bu yerda *sein* yordamchi fe'li bilan ishlatilgan va fe'lda yo'nalish va maqsadga yetish hissini ko'rish mumkin.

Shuningdek, ba'zi fe'llar faqat bir yordamchi fe'l bilan ishlatiladi, ammo boshqa fe'llar turli yordamchi fe'llar bilan ishlatilganda turli ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan, *brechen* (sindirmoq) fe'li *haben* bilan ishlatilganda amaliy harakatni ifodalaydi, ammo *sein* bilan natijani ko'rsatadi.

Ba'zi fe'llar *haben* yoki *sein* bilan qo'llanganda turli ma'nolarni ifoda qiladi:

Er hat die Blume abgebrochen. - U gulni uzib tashladi.

Die Blume ist abgebrochen. - Gul uzilib qolgan.

Der Hund hat das Kind angesprungen. - It bolaning ustiga sakradi.

Der Motor ist angesprungen. - Dvigatel ishga tushdi.

Er hat sein Wort gebrochen. - U so'zini buzdi.

Das Wasserrohr ist gebrochen. - Suv quvuri buzilgan.

Der Arzt hat die Wunde geheilt. - Doktor yarani davoladi.

Die Wunde ist geheilt. - Yara tuzalib ketdi.

Die Sonne hat das Eis geschmolzen. - Quyosh muzni eritdi.

Das Eis ist geschmolzen. - Muz erigan (edi).

Der Gärtner hat die Blumen gespritzt. - Bog'bon gullarga suv sepdi.

Das Wasser ist aus dem Schlauch gespritzt. - Shlangdan suv otilib chiqdi. (nemischa misollar G. Gelbig, I. Busha grammatikasidan olingan)

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, ba'zi hollarda *haben* bilan harakatni boshqarish yoki uning jarayoniga urg'u beriladi, *sein* bilan esa voqeaning natijasi va o'zgarishi ko'rsatiladi.

Nemis tilida perfekt shakllarini to'g'ri qo'llash uchun fe'lning aksional xususiyatlari (ya'ni, chegaralanganlik yoki chegaralanmaganlik), valentligini va grammatik qoidalarini

tushunish muhim ahamiyatga ega. Har bir yordamchi fe'l turli ma'nolarni ifodalaydi hamda fe'l harakati yoki uning natijasini bildiradi.

Perfekt shakli o'zining tarixiy rivojlanish jarayonida grammatikalizasiya jarayonidan o'tgan. Bu jarayonda yordamchi fe'llar (*haben* va *sein*) leksik va yordamchi funksiyalarini birlashtirib, perfektни ifoda qilish vositasiga aylangan. Grammatikalizasiya tilning soddalashishi jarayoni sifatida perfektning fe'l shakli rivojlanishiga ta'sir etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муминова А.О. Ҳозирги замон немис ва ўзбек тилларида юриш-ҳаракат феълларининг аспектиал семантикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. - Самарканд. 2021. – 49 б.
2. Ризаев Б.Х. Аспектная семантика перфектных и плюсквамперфектных форм немецкого глагола. - Самарканд: СамГИИЯ. 2003. – 89 с.
3. Ризаев Б.Х. Функционально-семантическое поле лимитативности в современном немецком языке. - Самарканд, СамГИИЯ. 2013. - 162 с.
4. Helbig G. und Buscha J. Deutsche Grammatik. Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. – Leipzig, Berlin, München: Langenscheidt, 19 edn 1996, – 731 S.
5. Шомуродова, Ш. Ж. (2017). КОНТЕКСТУАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ. Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. 31 окт.–3 нояб. 2017 г./Челяб. гос. ин-т культуры; сост. ЕВ Швачко.– Челябинск: ЧГИК, 2017.–394 с. ISBN 978-5-94839-629-3.
6. Шомуродова, Ш. Ж., Назарова, Н. Б., & Акрамова, К. (2020). Barriers of teaching foreign languages in junior classes. Евразийский научный журнал, (6), 63-65.
7. JAHONOVNA, S. S., FURQATOVNA, S. Y., & QIZI, X. Z. X. Make Use of Interactive Forms and Methods in Teaching a Foreign Language. JournalNX, 6(11), 260-263.
8. Шомуродова, Ш. (2018). Роль инновационных технологий в широкомасштабной реформации образовательного процесса. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(2 (67)), 30-33.
9. Jahonovna, S. S. (2022). FEATURES OF SEMANTIC AND STYLISTIC TRANSFORMATIONS OF STABLE WORD COMBINATIONS. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).
10. Jahonovna, S. S., & Avazbekovna, I. M. (2024). The importance of terminology in the study of specialized language. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 279-282.